

OLIY TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Hazratqulova Dildora

Guliston Davlat Instituti Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi 1-kurs 9.23-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimidagi muammolar, oliy ta'lim tizimidagi bo'shliqlar, ta'lim sifatining talab darajasida emasligi, shu bilan birga aynan shu muammolarning yechimlari, kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari haqida*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim tizimi, oliy ta'lim tizimidagi muammolar, ta'lim sifati, rag'batlantirish, moliyaviy holat, ijtimoiy, iqtisodiy, pedagog, axborot texnologiyalari, raqamlashtirish*

Kirish

Davr ruhini ifodalab, kun sayin barcha sohalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini oliy ta'lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog'i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat'iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Multimediya va Internet texnologiyalarining paydo bo'lishi axborot texnologiyalarining oliy ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya, muloqot jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o'z-o'zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o'stirishda tutayotgan o'rnini va ta'siri ortib borayotganligini inkor etib bo'lmaydi.

Jamiyat taraqqiyoti amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'lami va mantig'iga bog'liq. Qaysi soha e'tiborga muhtojligini ilg'ab, chuqur va har tomonlama o'ylanib amalga oshirilgan islohotlarga xalqning mushkulini oson, og'irini yengil, turmushini farovon qiladi, muammolariga yechim topib beradi. Bajarilayotgan ishlar zamirida bugungi muammolarni yechish bilan birga uzoq kelajak ham ko'zlangan bo'lishi lozim. "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarorida amalga oshirilayotgan ishlarning tahlili oliy ta'lim tizimi oldida turgan vazifalarni samarali tashkil qilish, amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammo va kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim sohasida, o'quv faoliyatida va o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Axborot texnologiyalari ta'limni amalga oshirish jarayonida hayot bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi. O'qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog'lash imkoniyati paydo bo'ladi. Axborot texnologiyalarini qo'llashda

o‘quvchi shaxsining butun imkoniyatlarini amalga oshirishga: kompyuter vositalari orqali bolaning bilishga oid, axloqiy, ijodiy, muloqot qilish va estetikaviy imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilish lozim. Kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning to‘laqonli vositasiga aylantirish uchun o‘qituvchining o‘zi axborot texnologiyalari sohasida bilimdon (salohiyatli) bo‘lishi kerak.

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” dasturini ishlab chiqish jarayoni ustida qizg‘in ish ketmoqda. Kelgusida raqamli universitetlarni tashkil etish bo‘yicha ham qator ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, Coursera (AQSH), EPAM (AQSH, Belarus) va Open University Malaysia (Malayziya) singari tashkilotlar bilan hamkorlik qilish hamda ulardan o‘quv materiallarini olishga kelishildi. Bu bilan hududlardagi yoshlarning, jumladan, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamining ishdan ajralmagan holda ta‘lim olish orzusi ro‘yobga chiqadi. Yosh avlodga ta‘lim berishda zamonaviy axborot texnologiyalari xizmatidan yana-da samarali foydalanish hamda yangi texnika va texnologiyalar bilan ishlashni o‘rganish maqsadida amalga oshirilgan ishlardan biri masofadan o‘qitish texnikasi va texnologiyasidir. U shu paytgacha mavjud bo‘lgan ta‘lim turlaridan ijobiy tomonlari bilan ajralib turadi. Jumladan, barcha o‘quvchi va talabalar, umuman, ta‘lim olishni xohlovchilarga yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalarida asosiy ta‘lim va ish faoliyatidan ajralmagan holda qo‘shimcha ta‘lim olish imkoniyatini yaratadi.

Muhokama

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan islohotlar, birinchi navbatda, demografik jarayonlar va urbanizatsiyani, bashariyat tafakkuri hamda xalqimizning o‘sayotgan siyosiy dunyoqarashi, ongi va madaniyati, umumxalq manfaati chuqur o‘ylangan holda amalga oshirilmogda. Ta‘lim tizimida, jumladan, oliy ta‘limda amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuz bergan o‘zgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma‘naviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda katta ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi, hatto xalqaro maydonda ham mamlakatimiz ob‘ro‘-e‘tiborini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada qator me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Prezidentimiz ta‘limdagi kamchiliklarni tanqidiy tahlil qilib, uni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatib berdi. Ta‘lim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma‘naviyatini yuksaltirish, ma‘naviy-ma‘rifiy muhitni zamon talabiga moslash, o‘qituvchi kasbining, nufuzini oshirish, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta‘lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta‘limga joriy etishga katta e‘tibor qaratish masalalariga jiddiy yondashish va shu bilan birga, o‘qituvchilar oyligini oshirish va rag‘batlantirib borish zarurligini ko‘rsatdi, bu masalalarda katta ishlar amalga oshirildi. Zamonaviy ilm-fan va ishlab chiqarish tomonidan ilgari surilgan barcha masalalarni

ishonch bilan hal qilishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish uchun oliy o'quv yurtlarida barcha shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda.

Natija

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Birlashgan Arab Amirliklarining “Dubai Future Foundation” jamg'armasi tomonidan amalga oshirilayotgan “Bir million dasturchi” loyihasi yoshlarning axborot texnologiyalariga qiziqishini rag'batlantirishda muhim strategik qadam bo'ldi. O'tgan yili loyihaga 120 mingdan ziyod o'quvchi qamrab olindi. Ularning 18 mingdan ortig'i kurslarni muvaffaqiyatli tugatib, sertifikat oldi. Kelgusida bu ko'rsatkichni 300 mingga etkazish va yoshlarni komp'yuter texnologiyalari yo'nalishida bepul o'qitish hamda masofaviy ta'limni va darslarni onlayn o'tkazish imkoniyatini beradigan axborot tizimlarini ishga tushirish ko'zda tutilgan. Loyiha doirasida eng ko'p tahsil oluvchilar Navoiy viloyati (36,6 ming), Qoraqalpog'iston Respublikasi (27,6 ming) va Toshkent shahri (24,5 ming) hissasiga to'g'ri keladi. Sirdaryo (4,3 ming) va Jizzax (5,9 ming) viloyatlari esa, quyi pog'onalardan o'rin olgan. Mamlakatimiz zamonaviy ta'lim tizimida turli texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish imkonini beradi. Shu maqsadda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitishda ta'lim uzluksizligiga alohida e'tibor qaratilyapti. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi va IT park mablag'lari hisobidan mukofotlash tizimi yo'lga qo'yildi. Ixtisoslashtirilgan IT maktablarni zamonaviy uskunalar, mebel, kompyuter texnikasi, shuningdek, o'quv adabiyotlari, uslubiy qo'llanmalar va boshqa vositalar bilan ta'minlash bo'yicha namunaviy loyiha hamda me'yorlar ishlab chiqildi.

Hozir yoshlar qulay va zamonaviy markazlarda, ta'lim muassasalarda o'qishni xohlaydi. Shunga monand auditoriyalar ham kompyuter, iPad, planshet, smart doskalar va boshqa turdagi ta'lim vositalari bilan jihozlangan. Shuningdek, hozirgi talabalar an'anaviy uslubda o'qishni istamaydi, aksincha, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim tarafdori. Shuning uchun axborot texnologiyalarini ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamlashtirish davr talabi. Endi o'qituvchilar ham odatiy usulda o'qitmaydi. Chunki rivojlangan davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham intellektual salohiyati yuqori avlod voyaga yetmoqda. Bunday muhitda kamol topayotgan yoshlarning fikrlashi va axborotni qabul qilish tarzi oldingi fikr yuritish va bilim olish jarayonidan tubdan farq qiladi. Janubiy Koreyaning Invil dasturi tajribasini o'rganish, shu orqali o'quv markazlarining rivojlanish dasturini ishlab chiqib, ikki-uchta pilot markazda tajribasinovdan o'tkazish, markazlarda shu yil davomida yigirma ming nafar tinglovchini o'qitish, xorijiy va mahalliy IT ekspertlarni o'quv markazlariga keng jalb etish kabilar rejalashtirilgan. Hozir IT sohasida yiliga o'rtacha besh mingdan ortiq oliy ma'lumotli

kadr yetishib chiqadi. Shundan uch ming uch yuz nafari Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hissasiga to‘g‘ri kelyapti.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy axborot texnologiyalarining ta‘lim sohasiga kirib kelishi o‘qituvchilarga ta‘lim mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini sifat jihatidan o‘zgartirish imkonini beradi. Ta‘limdagi ushbu texnologiyalarning maqsadi axborot jamiyatida talabalarning intellektual imkoniyatlarini oshirish, shuningdek, ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida o‘quv jarayonini insonparvarlashtirish, individuallashtirish, intensivlashtirish va ta‘lim sifatini oshirishdan iborat. Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari tashkil etildi. Elektron tijorat va dasturlashni bepul o‘rgatish, axborot texnologiyalari sohasida biznes yuritish bo‘yicha innovatsion ko‘nikmalarni shakllantirish, “startap” loyihalarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha sezilarli natijaga erishildi. Xususan, uchinchi tashabbus doirasidagi ishlar aholining komp`yuter savodxonligini oshirish, axborot texnologiyalariga qiziqqan yigit-qizlarni malakali mutaxassis darajasiga olib chiqish, dasturiy mahsulotlar yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qilyapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

"Ta‘lim to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2022.

„O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-apreldagi 241-son qarori“. lex.uz. Qaraldi: 2021-yil 18-noyabr.

M. Aripov „, Internet va elektron aloqa asoslari " (qo‘llanma) 2023.

www.ziyonet.uz

www.guldu.uz

www.tdpu.uz

www.wikipedia